**27-24/01-13-son**
**2023-yil 5-iyul**

**"TASDIQLAYMAN"**
**O'zbekiston Respublikasi**
**Raqobatni rivojlantirish va**
**iste'molchilar huquqlarini himoya**
**qilish qo'mitasi raisi**

**__________ Sh. Sharaxmetov**
**"____" iyul 2023-yil.**

**O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2023-yil II-yarim yilligiga mo'ljallangan**
**ISH-REJASI**

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | **IYUL** | | |
| **1.** | Qo'mitaning markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari va hududiy boshqarmalar tomonidan 2023-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirgan ishlar bo'yicha hisobotni jamlash, tahlil qilish hamda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, Vazirlar Mahkamasiga yuborish. | 2023-yil 20-iyul | **K.Mamatov,** bo'lim xodimlari |
| **2.** | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika iste'molchilariga mahalliy va import ko'mir mahsulotlarini yetkazib berish mexanizmini takomillashtirish hamda ko'mirni saqlash omborlari tizimini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini ko'rib chiqib, belgilangan tartibda takliflar kiritish. | 2023-yil iyul | **U.Xakimov,** boshqarma xodimlari |
| **3.** | Tashqi reklama sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish yuzasidan Davlat Rahbariga axborot va qaror loyihasini kiritish. | 2023-yil 20-iyul | **D.Botirov** B.Sharipov A.Raupov |
| **4.** | Hududiy boshqarmalar ish samaradorligini oshirish maqsadida ularning eng muhim faoliyat ko'rsatkichlari bo'yicha reytingni ishlab chiqish | 2023-yil iyul | **B. Xakimov,** hududiy organlar |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **5.** | Qo‘mitaning 2023-yilning ikkinchi yarim yilligiga rejalashtirilgan ishlar bo‘yicha ish rejalarni tuzish va belgilangan tartibda tasdiqlatish. | 2023-yil iyul | **K.Mamatov,** bo‘lim xodimlari |
| **6.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-108-sonli Farmoni ijrosini tashkil etish maqsadida buyruq loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlatish. | 2023-yil iyul | **K.Mamatov,** bo‘lim xodimlari |
| **7.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi 239-son va 2018 yil 30 martdagi 249-son qarorlari bilan tasdiqlangan NIZOMlarni qayta ko‘rib chiqish. Bunda ularni birlashtirish masalasini ko‘rib chiqish. | 2023-yil iyul | **U.Xakimov,** Boshqarma xodimlari |
| **8.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-martdagi 249-son qarorining 2-ilovasi bilan belgilangan narxlari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar (xizmatlar) va ularning strategik turlari ro‘yxatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil iyul | **U.Xakimov,** boshqarma xodimlari |
| **9.** | O‘zbekiston Respublikasining “Issiqlik ta'minoti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasini ko‘rib chiqish. | 2023-yil iyul | **U.Xakimov,** O.Sadulloyev, bo‘lim xodimlari |
| **10.** | O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirining “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transportida yuk tashish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i loyihasini ko‘rib chiqish. | 2023-yil iyul | **U.Xakimov,** O.Sadulloyev, bo‘lim xodimlari |
| **11.** | Iste’molchilarga sotilayotgan shakar mahsulotlari narxlarini o‘rganish va tahlil qilish | 2023-yil iyul | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **12.** | Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash hisoboti loyihasini tayyorlashda ishchi guruh tarkibida ishtirok etish va departamentga tegishli ma’lumotlarni kiritib borish | 2023-yil iyul | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari |
| **13.** | Qo‘mita Nizomida belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirishda, targ‘ibot va axborot materiallarida asosiy indentifikator sifatida foydalaniladigan zamonaviy, asl va oson taniladigan logotipni yaratish uchun tanlov e’lon qilish. | 2023-yil iyul | **O.Usmonov,** xizmat xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **14.** | Qo‘mitaning 1-yarim yillik ish faoliyati yakunlari ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan matbuot anjumani tashkil qilish. | 2023-yil iyul | **O.Usmonov,** xizmat xodimlari |
| **15.** | Qo‘mitaning 2023-yil 26-maydagi “Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 63-ICh-sonli buyrug‘iga asosan davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish choralarini ko‘rish. | 2023-yil iyul-avgust | **T.Abdurashidov** T.Salimov S.Zoxidov |
| **16.** | Iste’mol etil spirti ishlab chiqarish va sotish bozorini, Qurilish oynasi ishlab chiqarish va sotish bozorini, Mobil aloqa xizmatlari bozorini tahlil qilish. | 2023-yil iyul | **D.Djalilova** bo‘lim xodimlari |
| **17.** | Iqtisodiyot tarmoqlariga xususiy sektorni keng jalb qilish, bozorlarda yangi ishtirokchilarning kirib kelishidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish orqali raqobatni rivojlantirish maqsadida eksklyuziv huquqlarni bekor qilish orqali mavjud monopoliyalarni bartaraf etishni, shuningdek eksklyuziv huquqlar berilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (ro‘yxati) reyestrni yuritishni va ular tomonidan boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini kamsitmaslik qoidalarini belgilashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish hamda loyihani tegishli vazirlik va idoralarga kelishishga kiritish. | 2023-yil 27-iyul | **S.Atamurotov,** boshqarma xodimlari |
| **18.** | Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 12 oktabrdagi 225-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga “Raqobat to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 06.07.2023 yildagi PF-108-son Farmonidan kelib chiqib o‘zgartirish kiritish haqidagi qaror loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil iyul | **Sh. Shadmankulov** bo‘lim xodimlari |
| **19.** | Qo‘mita nizomini tasdiqlash haqidagi normativ – huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil iyul | **Sh. Shadmankulov** bo‘lim xodimlari |
| **20.** | “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunlarni gender ekspertizadan o’tkazish. | 2023-yil iyul | **Sh. Shadmankulov** bo‘lim xodimlari |
| **21.** | “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan qonunchilik hujjatlarini unga muvofiqlashtirish bo‘yicha xatlovdan o‘tkazish va tegishli | 2023-yil 25-iyul | **Sh. Shadmankulov** bo‘lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | hujjatlar loyihalarni tayyorlash. | | |
| **22.** | Respublikadagi dehqon bozorlarini (iste’molchilarga sotilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini inson hayoti, sog‘ligini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini, sanitariya-epidemiologik talablar hamda davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarida bo‘lishi shart bo‘lgan asbob-uskunalar ta’minlanganligi va h.k) o‘rganish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish holati yuzasidan takliflar kiritish. | 2023-yil iyul | **D.Botirov**<br>B.Sharipov<br>A.Raupov |
| **23.** | Mahallabay ishlash va Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Namangan, Farg‘ona, Toshkent viloyati va Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan 2022-2023-yillar davomida amalga oshirilgan davlat xaridlarini hududiy boshqarmalar yordamida masofaviy tahlil qilish va umumlashtirish. | 2023-yil iyul-sentabr | **M.Kamilov,**<br>Boshqarma xodimlari |
| **24.** | Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida Raqobat qo‘mitasining xodimlari davlat xaridlari, shu jumladan xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan, davlat-xususiy sheriklik hamda ishonchli boshqaruvga berish sohalaridagi tanlov (tender) komissiyalari tarkibiga kiritilmasligi yuzasidan Vazirlik va idoralarga ogohlantirish xatlarini yuborish. | 2023-yil iyul | **M.Kamilov**<br>B.Boboxonov<br>I.Ismoilov |
| **25.** | Raqobat qo‘mitasi huzurida Raqobat siyosati va iste’molchilar huquqlari tadqiqotlari markazini tashkil qilish, shu ujumladan uni bino bilan ta’minlash, shuningdek “Axborot texnologiyalarini joriy etish markazi” davlat unitar korxonasini “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” davlat unitar korxonasi sifatida qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish. | 2023-yil iyul | **A.G‘afforov,**<br>**L.Allayev,**<br>**I.Sultonov,**<br>**X.Ortiqov,**<br>**Sh. Shadmankulov** |
| | **AVGUST** | | |
| **26.** | Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Davlat feldyegerlik xizmati tomonidan davlat organlariga xizmat ko‘rsatishda belgilangan tariflarga rioya etilishi yuzasidana qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishlar o‘tkazish. | 2023-yil avgust | **U.Xakimov,**<br>**A.Yarov**<br>Boshqarma xodimlari |
| **27.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organning tabiiy monopoliya subyektlari tovarlarining narxlari (tariflari) bo‘yicha qarori tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan mazkur qaror kuchga kirguniga qadar o‘n besh kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalarida hamda o‘z rasmiy veb-saytlarida e’lon qilganligini xatlovdan o‘tkazish. | 2023-yil avgust | **U.Xakimov**<br>O.Sadulloyev<br>Bo‘lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **28.** | Qoʻmita xodimlari ishtirokida jamoaviy ruhiyatni shakllantirish hamda mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish, jumladan:<br>1. 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boʻyicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasining 63-bandi ijrosi yuzasidan Qoʻmitada mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlarning, birinchi navbatda xotin-qizlarning “Yangi Oʻzbekiston boʻylab sayohat qil!” shiori ostida mamlakatimizdagi soʻlim goʻshalar, dam olish maskanlari va tarixiy shaharlarga sayohatlarini tashkil etish.<br>2. Tadbir tafsilotlarini Qoʻmita sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritish. | 2023-yil avgust | **G.Qodirova,** S.Atamurotov, I.Akbarov, O.Usmonov |
| **29.** | Isteʼmolchilarga sotilayotgan koʻmir mahsuloti narxlarini oʻrganish va tahlil qilish. | 2023-yil avgust | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **30.** | Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 114-son qaroriga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish. | 2023-yil avgust | **T.Abdurashidov** T.Salimov S.Zoxidov |
| **31.** | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentini tadbirkorlar bilan uchrashuviga tayyorgarlik koʻrish doirasida tadbirkorlik va raqobatni muhiti rivojlanishiga toʻsiq boʻlayotgan tizimli muammolarni oʻrganib ularning yechimi boʻyicha aniq takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil 4-avgust | **K.Mamatov, D.Djalilova,** Tegishli tarkibiy boʻlinmalar, hududiy organlar |
| **32.** | Qoʻmita xodimlariga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining 2-markaziy konsultativ-diagnostika poliklinikasi tomonidan tibbiy xizmat koʻrsatilishi boʻyicha amaliy chora-tadbirlarini koʻrish. | 2023-yil avgust | **I.Akbarov S.Atamurotov,** |
| **33.** | Raqobat qoʻmitasi Jamoatchilik Kengashining navbatdagi yigʻilishini oʻtkazish. | 2023-yil 23- avgust | **O.Usmonov,** xizmat xodimlari, G.Qodirova, K.Mamatov |
| **34.** | Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qoʻmitasi faoliyatini tashkil yetish chora- | 2023-yil avgust | **D.Nasirova,** boʻlim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | tadbirlari to‘g‘risida”gi 402-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida hamda sohani tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlar ijrosi bo‘yicha Qo‘mitaning Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi faoliyati samaradorligi, shuningdek, moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish. (ichki audit yo‘nalishida). | | |
| **35.** | Qo‘mita tizimida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, ularga oldindan “tashxis qo‘yish” va korrupsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish takliflar tayyorlash. | 2023-yil avgust | **D.Nasirova,** bo‘lim xodimlari |
| **36.** | Maxsus avtomobil texnikalarini ishlab chiqarish va sotish bozorini, Neft gaz bozorida tahlil o‘tkazish, jumladan, neft va gazni qayta ishlash xizmati bozorini tahlil qilish. | 2023-yil avgust | **D.Djalilova** bo‘lim xodimlari |
| **37.** | “Tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e’tirof etish hamda Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaror loyihasini ishlab chiqish.<br>Ushbu qaror loyihasida tovar yoki moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining, raqamli platforma operatorining ustun mavqeini va ustun muzokara kuchini aniqlash va e’tirof etishni nazarda tutish. | 2023-yil avgust | **D.Djalilova** bo‘lim xodimlari |
| **38.** | Aholiga kundalik hayotida foydalanish uchun suyultirilgan gazni yetkazib berilishi holatini tizimli o‘rganish hamda natijalari yuzasidan muammo va takliflarni taqdim etish. | 2023-yil avgust-noyabr | **D.Botirov**<br>B.Sharipov<br>A.Ummatov,<br>hududiy organlar |
| **39.** | Davlat xaridlarida raqobat to‘g‘risidagi hamda davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan Prezident Administratsiyasiga axborot kiritish. | 2023-yil 8-avgust | **M.Kamilov,**<br>B.Boboxonov<br>I.Ismoilov |
| **40.** | Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Tovar bozorlarini tartibga solish indeksi (Product Market Regulation - PMR) asosida respublikada iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha dastlabki baholash ishlarini yakunlash bo‘yicha Jahon Banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ekspertlari bilan maslahatlashuv. | 2023-yil 15-avgust | **B.Yusupjanov;** bo‘lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **41.** | O‘zbekiston Respublikasinining Jahon savdo tashkilotiga (WTO) qo‘shilishi bo‘yicha Ishchi guruhning navbatdagi 7-yig‘ilishda ga puxta tayyorgarlik ko‘rish va tegishli qismlari bo‘yicha respublikaning pozitsiyalarini shakllantirish maqsadida muhokama qilinadigan materiallarni tayyorlash. | 2023-yil 8-avgust | **B.Yusupjanov;** bo‘lim xodimlari |
| **42.** | Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) ko‘magi doirasida raqamli bozorlarda raqobat to‘g‘risidagi qonunni qo‘llash hamda iste’molchilar huquqlarini himoya qilish milliy strategiyasini ishlab chiqish uchun xalqaro va milliy ekspertlarni jalb qilish. | 2023-yil 18-avgust | **B.Yusupjanov,** bo‘lim xodimlari |
| **43.** | Tarmoq infratuzilmasi bilan bog‘liq va tabiiy monopoliya, jumladan elektr energiyasi, tabiiy gaz, temir yo‘llar, fuqaro aviatsiyasi, aeroport xizmatlari, avtomobil yo‘llari va telekommunikatsiya sohalarida mustaqil bozor regulyatorlari institutini bosqichma-bosqich joriy qilish bo‘yicha Yo‘l xaritalarni ishlab chiqish maqsadida Jahon banki ekspertlari bilan maslahatlashuv o‘tkazish. | 2023-yil 25-avgust | **U.Xakimov,** O.Sadulloyev, bo‘lim xodimlari B.Yusupjanov, D.Botirov, |
| **44.** | Germaniyaning Xalqaro hamkorlik bo‘yicha German Sparkassenstiftung bilan hamkorlikda keng jamoatchilikni jalb qilgan holda “Iste’molchining huquqiy savodxonligi” shiori ostida faol iste’molchilar o‘rtasida onlayn tanlov o‘tkazish. | 2023-yil 28-avgust | **D.Botirov, B.Yusupjanov,** bo‘lim xodimlari |
| **45.** | O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi hamda Ozarbayjon Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Monopoliyaga qarshi kurashish va iste’mol bozorini nazorat qilish davlat xizmati o‘rtasida o‘zaro anglashuv hamda hamkorlik to‘g‘risida memorandumni davlatlar rahbarlari uchrashuvi doirasida imzolash uchun tayyorlash. | 2023-yil 30-avgust | **B.Yusupjanov,** bo‘lim xodimlari |
| **46.** | Tarmoqlarni tartibga solishda yuridik shaxslar birlashmalarining bozorlardagi raqobatga salbiy ta’sirini cheklashga qaratilgan qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida normativ huquqiy-hujjat loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish. | 2023-yil avgust | **M.Kamilov** B.Bobohonov A.Matmusaev bo’lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **SENTABR** | | | |
| **47.** | Raqobatga qarshi harakatlarga chek qo‘yishda iqtisodiy ta’siri past holatlar bo‘yicha birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralarini qo‘llamagan holda, profilaktik tushuntirish tadbirlarini amalga oshirish tartibi joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 12-oktabrdagi 225-son qaroriga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha qaror loyihasini tayyorlash. | 2023-yil sentabr | **Sh. Shadmankulov** bo‘lim xodimlari |
| **48.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-son Farmoni 2-bandi topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tabiiy monopoliyalar sohasida faoliyat olib borganda ular tabiiy monopoliya subyektlari hisoblanmasligi yuzasidan o‘rganish va tahlillar o‘tkazish. | 2023-yil sentabr | **U.Xakimov** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **49.** | Bozorlar, yirik savdo tarmoqlari va do‘konlar joylashuvi, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fairtech.uz platformasiga kiritish. | 2023-yil sentabr | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **50.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, shuningdek, ularning affillangan shaxslarini va xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etishda (qayta tashkil etishda) monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 346-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil sentabr | **T.Abdurashidov** A.Mo‘ydinov |
| **51.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish hamda aksiyalarni (ulushlarni) olish bo‘yicha monopoliyaga qarshi organning oldindan rozilik berish yuzasidan “Iqtisodiy konsentratsiyani ko‘rib chiqish va oldindan rozilik olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil sentabr | **T.Abdurashidov** A.Mo‘ydinov |
| **52.** | Telegram ijtimoiy tarmog‘ida doimiy ravishda (kamida bir oyda bir marta) jamoatchilikni qiziqtirgan va Qo‘mita faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan turli masalalar bo‘yicha anonim ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazib borish. | 2023-yil sentabr | **O.Usmonov,** xizmat xodimlari, |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **53.** | Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi ichki me’yoriy hujjat loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil avgust | **D.Nasirova,** bo‘lim xodimlari |
| **54.** | Maktab o‘quvchilarini elekton baholash (kundalik) tizimi bozorini tahlil qilish. | 2023-yil sentabr | **D.Djalilova** bo‘lim xodimlari |
| **55.** | Madaniyat va turizm vazirligi bilan hamkorlikda Reklamalar, shu jumladan respublika hududlarida o‘rnatilgan tashqi reklamalarning reklama to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga, ularni davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va ma'naviyatning umume'tirof etilgan normalariga mosligi yuzasidan o‘rganish o‘tkazish, tushuntirish va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish va yoritish. | 2023-yil sentabr | **D.Botirov,** B.Sharipov, Sh.Maxamadaliyev |
| **56.** | O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qonun loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil sentabr | **D.Botirov** Sh.Shadmankulov |
| **57.** | Xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish asosida savdolar jarayonida o‘zaro kelishib olingan va boshqa raqobatga zid harakatlarni aniqlashga qaratilgan “xavfni tahlil etish” (risk analiz) elektron tizimini yaratish va faoliyatga sinov tariqasida joriy etilish. | 2023-yil sentabr | **M. Kamilov,** boshqarma xodimlari, **I.Sultonov** |
| **58.** | Tadbirkorlik subyektlari yoki (hamda) xorijiy ekspertlar bilan birgalikda uchrashuvlar o‘tkazish hamda davlat xaridlari jarayonidagi raqobatga to‘siq bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil sentabr | **M.Kamilov** B.Boboxonov, I.Ismoilov |
| **59.** | PF-108-son Farmonning 3-band 4-xatboshisi ijrosini ta’minlash uchun “Kartel” kelishuvlari va til biriktirish holatlarini aniqlashning mavjud tartibini jahon tajribasini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish hamda ushbu qonunbuzarlik holatlari haqida birinchi bo‘lib xabar bergan kartel ishtirokchilarini javobgarlikdan ozod qilish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 20-avgustdagi 230-son qarori bilan tasdiqlangan Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish | 2023-yil sentabr | **M.Kamilov, S.Atamuratov,** B.Bobohonov, A.Matmusaev, bo’lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | **OKTABR** | | |
| **60.** | Aholi va ijtimoiy soha obyektlariga yetkazib berilayotgan suyultirilgan gaz hajmlari va narxlari boʻyicha hududlar kesimida oʻrganishlar oʻtkazish | 2023-yil oktabr | **U.Xakimov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **61.** | Ustun mavqega ega deb e’tirof etilgan raqamli platforma operatorining raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlarini aniqlash tartibini ishlab chiqish (Vazirlar Mahkamasi qarori). | 2023-yil oktabr | **U.Xakimov**, Boshqarma xodimlari |
| **62.** | Avtomobillarga yoqilgʻi quyish shaxobchalarida iste’molchilarga sotilayotgan benzin narxlarini nazorat qilish va monitoringini yuritish. | 2023-yil oktabr | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **63.** | Tashqi bozorlarda asosiy turdagi tovarlar bilan bogʻliq bozor konyunkturasini oʻrganish. Import va eksporta hajmlari va narxlar dinamikasini tahlil qilish. | 2023-yil oktabr | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari |
| **64.** | Yangi monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilgan xoʻjalik yurituvchi subyektlarda tayinlangan vakolatli shaxslarga raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik talablari mazmun-mohiyatini kengroq va soddaroq tarzda tushuntirish va sohaga oid bilimlarini oshirish maqsadida alohida reja-grafik asosida oʻquv-seminarlari tashkil etish. | 2023-yil oktabr | **T.Abdurashidov** S.Zoxidov |
| **65.** | Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organiga murojaat kelib tushganda, murojaat holatini onlayn kuzatish imkoniyatini beruvchi elektron tizim yaratish. Axborot tizimini ishlab chiqish. | 2023-yil oktabr | **S.Xalilov,** **I.Sultonov**, D.Botirov, U.Fayazov |
| **66.** | Davlat tomonidan subsidiya va preferensiyalar berilgan subyektlar reyestrini yuritishni, imtiyoz, preferensiya va subsidiyalar taqdim etilishini tizimli monitoring qilishni va ularning samaradorligini hamda raqobat muhitiga ta’sirini baholashni tartibga soluvchi tizimni joriy etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, tegishli vazirlik va idoralarga kelishishga kiritish. | 2023-yil oktabr | **S.Atamurotov,** boshqarma xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **67.** | “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va amaldagi qonunchilik hujjatlarining raqobatga ta’sirini baholash tartibi to‘g‘risida”gi qarorini qayta ko‘rib chiqib Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil oktabr | **S.Atamurotov,** boshqarma xodimlari |
| **68.** | 2023-yil 9 oy davomida monopoliyaga qarshi tartibga solish, narxlar va tariflarni nazorat qilish sohasida oshirilgan ishlar bo‘yicha brifing o‘tkazish. | 2023-yil oktabr | **O. Usmonov,** xizmat xodimlari **U.Xakimov** |
| **69.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyatini tashkil yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 402-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida hamda sohani tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlar ijrosi bo‘yicha Qo‘mitaning Namangan viloyati hududiy boshqarmasi faoliyati samaradorligi, shuningdek, moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish. (ichki audit yo‘nalishida) | 2023-yil oktabr | **D.Nasirova,** bo‘lim xodimlari |
| **70.** | Iqtisodiyot tarmoqlarini raqobat rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib:<br>qizil — raqobat rivojlanmagan va davlat ishtiroki yuqori;<br>sariq — raqobatga salbiy ta’sir etuvchi omillar mavjud;<br>yashil — raqobat rivojlangan guruhlarga ajratish tizimini yaratish. | 2023-yil oktabr | **D.Djalilova** Bo‘lim xodimlari, B.Xakimov |
| **71.** | Elektron tijorat savdolaridagi shartnomalarni (Zoodmall, Uzummarket, elmakon.uz, olcha.uz, openshop, mediapark.uz va h.k. har oyda ikkitadan) ofertalarni doimiy ravishda raqobatni cheklashga va iste'molchilarning huquqlari va manfaatlarini kamsitishga olib keladigan shartlar kiritilganligi holatlari yuzasidan o‘rganish va muammo va takliflarni taqdim etish. | 2023-yil oktabr | **D.Botirov** B.Sharipov A.Raupov |
| **72.** | 2023-yil 18-20-oktabr kunlari Barselonada bo‘lib o‘tadigan Xalqaro raqobat tarmog'ining (International Competition Network 2023) 22-yillik konferentsiyada Qo‘mitaning mutasaddi vakillari ishitirokini tashkillashtirish. | 2023-yil oktabr | **B.Yusupjanov,** bo‘lim xodimlari |
| **73.** | Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy mamlakatlarning sohaga mas’ul organlari, xalqaro tashkilotlar hamda xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan konferensiya, forum, yig‘ilish va boshqa turdagi tadbirlarda Qo‘mita mutasaddi vakillari ishitirokini tashkillashtirish. | 2023-yil oktabr | **B.Yusupjanov,** bo‘lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **74.** | Qo‘mita hamda Turkiya Raqobat organi o‘rtasida raqobat siyosati sohasidagi o‘zaro anglashuv hamda hamkorlik to‘g‘risida memorandum loyihasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan o‘rnatilgan tartibda kelishish va imzolash bo‘yicha tadbirlar ijrosini ta’minlash. | 2023-yil oktabr | **B.Yusupjanov;** bo‘lim xodimlari |
| **75.** | Respublikamizning 2 ta hududi va 10 ta tarmog‘ida raqobatni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish. | 2023-yil oktabr | **K.Mamatov,** Samarqand va Toshkent viloyat hududiy boshqarmalar, barcha tarkibiy bo‘linmalar |
| **NOYABR** | | | |
| **76.** | Monopol korxonalar tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlariga rioya etilishi yuzasidan belgilangan tartibda o‘rganish va tahlillar o‘tkazish. | 2023-yil noyabr | **U.Xakimov** Boshqarma xodimlari |
| **77.** | Raqobat va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan konsepsiya, strategiya va “yo‘l xaritalari”ni qayta ko‘rib chiqish. | 2023-yil noyabr | **K.Mamatov,** bo‘lim xodimlari |
| **78.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrda “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6313-son Farmonining 3-band, “d” kichik bandida bilan belgilangan kommunal soha, energiya bilan ta'minlash, aloqa xizmati, yo‘lovchi va yuklarni tashish va boshqa shu kabi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarda tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan ommaviy shartnomalarni xatlov o‘tkazish. | 2023-yil noyabr | **U.Xakimov,** O.Sadulloyev, bo‘lim xodimlari, hududiy organlar |
| **79.** | 2023-yil 20-dekabrga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda: amalga oshirilayotgan loyihalarni tahlil qilgan holda tabiiy monopoliyalarning faoliyati mustaqil regulyatorlar orqali tartibga solinishini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning tariflarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini yalpi xatlovdan o‘tkazgan holda maqbullashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini belgilangan tartibda kiritish. | 2023-yil noyabr | **U.Xakimov, O.Sadullaev** |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **80.** | Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchalarida iste’molchilarga sotilayotgan benzin narxlarini nazorat qilish va monitoringini yuritish | 2023-yil noyabr | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **81.** | Qo‘mita faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni gender ekspertizadan o’tkazish | 2023-yil noyabr | **Sh.Shadmankulov** bo‘lim xodimlari |
| **82.** | Ro‘yxatga asosan davlat organlari va tashkilotlarning ma’lumotlari bazasidan real vaqt rejimida foydalanish uchun integratsiya qilish. (PF-145, 31.05.2022 y.) | 2023-yil noyabr | **S.Xalilov, I.Sultonov** va xodimlari Tarkibiy boshqarma va bo‘linma rahbarlari |
| **83.** | Qo‘mitaning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga “Butunjahon sifat kuni”ga oid materiallar, ijtimoiy roliklar, xabar va yangiliklarni joylashtirish. | 2023-yil noyabr | **O. Usmonov,** xizmat xodimlari |
| **84.** | Avtobuslarni ta’mirlash xizmati bozorini, Taksi agregatorlari xizmati bozorini, Maishiy texnika bozorini tahlil qilish | 2023-yil noyabr | **D.Djalilova,** bo‘lim xodimlari |
| **85.** | Iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi, iste’molchilarga savdo, ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarni “Iste’molchi ishonchi” sifat belgisi bilan e’tirof etish tartibi loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr | **D.Botirov,** B.Sharipov, A.Raupov |
| **86.** | Insofsiz raqobat sohasida monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari buzilishi holati mavjudligi (yoki mavjud emasligi) faktini aniqlash Metodikasini ishlab chiqib vazirlik va idoralar bilan kelishish. | 2023-yil noyabr | **M.Kamilov S.Atamuratov** B.Bobohonov **A.Matmusaev** bo’lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **DEKABR** | | | |
| **87.** | Tabiiy monopoliyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish hamda tariflarni tartibga solishning samarali mexanizmlarini qayta koʻrib chiqish (Vazirlar Mahkamasi qarori).<br>Bunda, quyidagilarni nazarda tutish:<br>amalga oshirilayotgan loyihalarni tahlil qilgan holda tabiiy monopoliyalarning faoliyati must aqil regulyatorlar orqali tartibga solinishini yoʻlga qoʻyish;<br>tabiiy monopoliyalarning tariflarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan oʻtkazib, maqbullashtirish. | 2023-yil dekabr | **U.Xakimov,**<br>O.Sadulloyev,<br>boʻlim xodimlari |
| **88.** | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sogʻliqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199-son qaroriga muvofiq davlat byudjeti mablagʻlari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga tashhis qoʻyish va davolash boʻyicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq tibbiy xizmatlarning bazaviy narxlarini shakllantirilishi yuzasidan oʻrganishlar oʻtkazish hamda taklif etilgan narxlarni belgilangan tartibda kelishish. | 2023-yil dekabr | **U.Xakimov,**<br>**S.Maxmudov,**<br>Boshqarma xodimlari |
| **89.** | Yangi yil bayrami munosabati bilan hududlardagi markaziy bozorlarda tashkil etiladigan “Savdo yarmarkalari”da asosiy turdagi mahsulotlarning narxlarini monitoring qilish. | 2023-yil dekabr | **U.Davlatov,**<br>Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **90.** | Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xoʻjalik yurituvchi subyektlarning monopoliyaga qarshi komplaens toʻgʻrisidagi yillik hisobotlarini qabul qilib olish. | 2023-yil dekabr | **T.Abdurashidov**<br>bo'lim xodimlari |
| **91.** | Raqobat qoʻmitasi tomonidan “Biz sizni eshitamiz” loyihasi joriy qilinadi va ushbu loyiha doirasida har chorakda kamida bitta tarmoqdagi tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan uchrashuv oʻtkazish, raqobatga toʻsiq boʻlayotgan omillarni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tizimi yoʻlga qoʻyish. | 2023-yil dekabr | **K.Mamatov**<br>Tegishli tarkibiy boʻlinmalar |
| **92.** | Isteʼmolchilarga mamlakat isteʼmol bozorida muomalada boʻlgan tovar (ish, xizmat)lar toʻgʻrisida maʼlumotlarni onlayn tarzda olish imkoniyatini beruvchi “Product Info” axborot tizimi va mobil ilovasini yaratish. (PQ-357, 22.08.2022 y.)<br>Bunda, onlayn tarzda isteʼmolchilardan murojaatlarni (shikoyatlarni) qabul qilish, isteʼmolchilarga tezkor maslahat va huquqiy axborot berish, Raqobatni rivojlantirish va | 2023-yil dekabr | **S.Xalilov,**<br>**I.Sultonov**<br>va xodimlari<br>D.Botirov,<br>U.Davlatov |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan jamoatchilik nazorati elementlaridan yanada kengroq foydalangan holda, faoliyat samaradorligi oshirish, iste'molchilarga mahsulot aslligini joyida tekshirish, mahsulotning uning ishlab chiqaruvchisi (sotuvchisi) to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq to'liq olish, kontrafakt mahsulotlarni yetib borishini oldini olish imkonini beruvchi "Product info" axborot tizimini yaratish. | | |
| **93.** | Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish, o'rnatilgan tartibda tasdiqlash hamda amaliyotga joriy etish. | 2023-yil dekabr | **S.Xalilov, I.Sultonov** va xodimlari |
| **94.** | Qo'mita faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimlari va resurslarini texnik topshiriq talablariga mosligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazish. | 2023-yil dekabr | **S.Xalilov, I.Sultonov** va xodimlari |
| **95.** | Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning tegishli markazlarida Qo'mita faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimlari va resurslari, dasturiy ta'minotlar va elektron reestrlar ma'lumotlarini belgilangan tartibda zaxiralashni tashkil qilish. | 2023-yil dekabr | **S.Xalilov, I.Sultonov** va xodimlari |
| **96.** | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun oldidan "Konstitutsiya – xalqimiz taraqqiyotining huquqiy poydevori" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etish. | 2023-yil dekabr | **G.Qodirova** |
| **97.** | Qo'mita, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlari xodimlari ishtirokida 9 dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan semenar tashkil etish | 2023-yil Dekabr | **D.Nasirova,** bo'lim xodimlari |
| **98.** | Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi, iste'molchilarga savdo, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarni "Iste'molchi ishonchi" sifat belgisi bilan e'tirof etish tartibini joriy qilish. | 2023-yil dekabr | **D.Botirov** B.Sharipov A.Raupov |
| **99.** | Xalqaro hamkorlik doirasida Qo'mita hamda xorijiy tashkilotlar vakillari, rasmiylari hamda delegatsiyalari o'rtasida ikki tomonlama bo'lib o'tishi rejalashtirilgan uchrashuvlarga tayyorgarlik ko'rish hamda yuqori darajada o'tkazishilishini ta'minlash. | 2023-yil noyabr-dekabr | **B.Yusupjanov,** bo'lim xodimlari |
| **100.** | O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish doirasida tashkil etilgan Ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish, mazkur yig'ilishlarda faol ishtirok etish, ekspertlar bilan uchrashuvlar o'tkazish hamda Qo'mita faoliyatiga oid tegishli | 2023-yil dekabr | **B.Yusupjanov,** bo'lim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | savolnomalarni to‘ldirish. | | |
| | **DOIMIY** | | |
| **101.** | Qo‘mita va hududiy organlar tomonidan tekshirish va o‘rganishlarda aniqlangan ortiqcha olingan mablag‘larni undirish hamda Sud qarorlariga asosan undirishga qo‘yilgan mablag‘larning undirish choralarini ko‘rish. | 2023-yil doimiy | **U.Xakimov,** Boshqarma xodimlari Barcha hududiy boshqarmalar |
| **102.** | “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida Qo‘mita mas’ul bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi va Taraqqiyot strategiyasi markaziga ma’lumot berib borish. | 2023-yil doimiy | **K.Mamatov,** bo‘lim xodimlari |
| **103.** | Qo‘mita va uning tizim tashkilotlari mutaxassislari hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlarining xodimlarini monopoliyaga qarshi kurashish va raqobatni rivojlantirish sohasi bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlarda qisqa va uzoq muddatli o‘quv kurslarida o‘qish va tajriba almashish uchun yuborishni ta’minlasin. | 2023-yil doimiy | **I.Akbarov,** B.Yusupjanov |
| **104.** | Iqtisodiyotda raqobat muhiti va iste’molchilar huquqlarining himoya qilinishi holati to‘g‘risida har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Oliy Majlis Senatiga hisobot berish. | 2023-yil doimiy | **K.Mamatov,** bo‘lim xodimlari |
| **105.** | Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Markaziy bank bilan birgalikda ichki va tashqi bozordagi tendentsiyalarni inobatga olgan holda muhim turdagi iste’mol mahsulotlari bo‘yicha bojxona boji stavkalarini qayta ko‘rib chiqish, muvofiqlashtirish va texnik tartibga solish masalalarini Tarif va notarif tartibga solish bo‘yicha komissiyaning yig‘ilishida muhokama qilish uchun kiritib borish. | Har oyda | **U.Davlatov,** Boshqarma xodimlari, hududiy organlar |
| **106.** | Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish hamda xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo‘yicha bitimlarga oldindan rozilik berish yuzasidan arizalarni ko‘rib chiqish. | 2023-yil doimiy | **T.Abdurashidov** A.Mo‘ydinov Hududiy organlar |
| **107.** | Davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, shuningdek ularning affillangan shaxslarini va xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etish (qayta tashkil etish)ga oldindan rozilik berish yuzasidan arizalarni ko‘rib chiqish. | 2023-yil doimiy | **T.Abdurashidov** **A.Mo‘ydinov** Hududiy organlar |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **108.** | Doimiy ravishda tovar, moliya va raqamli bozorda ustun mavqeni egallab turgan xoʻjalik yurituvchi subyektlar oʻzlarining rasmiy veb-saytlarida sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning monopol turlari boʻyicha namunaviy shartnomalarni (ofertalarni) joylashtirilishini nazorat qilib borish. | 2023-yil doimiy | **T.Abdurashidov** T.Salimov |
| **109.** | Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta’sir etadigan Qoʻmitaning qarorlari yuzasidan xulosalar berish. | 2023-yil doimiy | **Sh. Shadmankulov** boʻlim xodimlari |
| **110.** | data.egov.uz Oʻzbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portaliga Qoʻmita ish faoliyatiga oid ma’lumotlari roʻyxat boʻyicha joylashtirish. | 2023-yil doimiy | **S.Xalilov,** Boʻlim xodimlari |
| **111.** | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi “Tartibga solish ta’sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-5025-son qaroriga asosan tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek, atrof-muhitga ta’sir koʻrsatuvchi barcha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta’sirini baholash boʻyicha ishlab chiqilgan hisobotlar Qoʻmitaga kelib tushganda koʻrib chiqilishini va belgilangan tartibda munosabat bildirib borilishini ta’minlash. | 2023-yil doimiy | **S.Atamurotov,** boshqarma xodimlari |
| **112.** | Qoʻmita huzuridagi budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan hududiy boshqarmalarning buyurtmanomalari hamda asoslovchi hisob-kitoblariga asosan ularning xarajatlarini moliyalashtirishni tashkil etish. | 2023-yil doimiy | **L.Allayev,** Boʻlim xodimlari |
| **113.** | Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi tizimida korrupsiya holatlarini oldini olish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar tashkil etish. | 2023-yil doimiy | **D.Nasirova,** boʻlim xodimlari |
| **114.** | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining tegishli topshiriqlariga asosan tovar va moliya bozorlarida raqobat darajasini aniqlash boʻyicha oʻrganishlar oʻtkazish. | 2023-yil doimiy | **D.Djalilova** boʻlim xodimlari |
| **115.** | Tovar, moliya va raqamli bozorida ustun mavqeni egallab turgan xoʻjalik yurituvchi subyektlar davlat reestridagi korxonalarni baholash va tegishli sohada raqobat muhitini rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish | 2023-yil doimiy | **D.Djalilova** boʻlim xodimlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **116.** | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi “Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-son qaroriga asosan amalga oshirilayotgan xaridlarni vakolat doirasida “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun talablariga amal qilinishini nazorat qilish. | 2023-yil doimiy | **M.Kamilov**<br>B.Boboxonov<br>I.Ismoilov<br>bo’lim xodimlari |
| **117.** | “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta’minlash. | 2023-yil doimiy | **K.Karabaev**<br>Qo‘mitaning barcha tarkibiy bo‘linmalari |